



AGROTURIZMNI HOZIRGI KUNDA RIVOJLANISHI

Boyqulova Shaxzoda

Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar

institut Agroturizm yo'nalishi

Annotatsiya: Maqolada agroturizmni hozirgi kunda rivojlanib borishi shu bilan birgalikda agroturizm sohasida berilayotgan imkoniyatlar yoritib berilgan. Agroturizm sohasida kadrlarni tayyorlash va ularga yaratilgan imkoniyatlar ochib berilgan agroturizmni rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili asosida o'rganilgan. Agroturizm rivojlantirish imkoniyatlari va istiqbollari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Agroturizm, eko turizm, turizm, xalqaro turizm, turistik qishloqlar, ko'ngil ochar turizm, diniy turizm, tibbiyot turizmi

Qishloq xo'jaligi insonlarni sog'lom o'sib-ulg'ayishi va kamol topishida yuqori ahamiyat kasb etadi. Dunyo iqtisodiyotning taraqqiy topib borishi qishloq xo'jaligiga bog'liq sohalarni ko'payishiga olib kelmoqda. Bunday sohalardan bir agroturizm hisoblanib, u 1800-1900 yillar oralig'ida rivojlantirila boshlagan. Qishloq xojaligi rivojlanib borishi bilan eko turistik hududlar shu bilan birgalikda organik maxsulotlarni ko'payishiga sabab bo'ladi bu esa inson salomatligini oshiradi. Agroturizmni rivojlanib borishi yurtimizga keladigan turistlar sonini oshiradi.

Hozirda dunyo bo'yicha agroturizmning 80 ga yaqin turlari mavjud bo'lib, global darajadagi agroturizm bozorining hajmi 2019 yil ma'lumotlarida qaraganda 69,24 milliard dollarga teng bo'lgan. Uning istiqboldagi rivojlanish ko'lami esa 2027 yilda 117,37 milliard dollarga teng bo'lishi prognoz qilingan. O'zbekistonda agroturizmga e'tibor 2013 yildan boshlab kuchaytirila boshladi. Agroturizmga e'tibor ko'chaytirilgandan so'ng turli



xil turistik markazlar va qishloqlar tashkil etildi. Hozirgi kunda eng ko'p agroturizm rivojlangan davlatlar Italiya, Ispaniya, Irlandiya, Fransiya, Shvesariya, Skandi-naviya turizmi rivojlanish bo'yicha yetakchi hisoblanadi. Agroturizm va qishloq turizmidan keladigan daromad turizmdan keladigan daromadning 10-20 %ini tashkil qilmoqda. Agroturizm sayyohlarning qishloqlarda joylashgan fermer xo'jaliklari, dehqon xo'jaliklari va uy xo'jaliklari maxsus tomorqaga ega xonadonlarga qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida ishtirok etish maqsadida tashrifini aks ettiradi. O'zbekistonda ham bugungi kunda agroturizmning —Turizm ovuli, —Turizm qishlog'i tasnifiga kiritilgan obyektlari mavjud bo'lib, u yerlarda qishloq aholisi hayoti bilan tanishish, qishloq oilasi bilan birgalikda yashash va milliy taomlardan iste'mol qilish, tabiiy toza mahsulotlarni iste'mol qilish, turli bayram kechalari o'tkazish kabi madaniy tadbirlarda ishtirok etishlari uchun salohiyat yuqori. Boshqa yondashuvlardan asosiy farqi, uy xo'jaliklari fermer xo'jaligi sifatida ro'yxatdan o'tmagan, yuridik shaxs sifatida faoliyat ko'rsatmaydigan bo'lsada, lekin oilaviy daromad olib keluvchi tadbirkorlar sifatida agroturizm bilan mustaqil shug'ullana oladigan, ekskursiya xizmatlarini tashkillashtira oladigan xo'jaliklardir. Shuningdek, ularning asosiy faoliyati qishloq xo'jaligida mavjud ishlarni qilish bo'lib, agroturizm xizmatlarini bajarish orqali esa qo'shimcha daromad ko'radilar bu esa ijtimoiy aholi qatlamini yashash sharoitini yaxshilashga olib keladi. So'nggi vaqtlarda sayyohlarning ko'pchiligi dam olish kunlarini qishloq uylarida biroz muddat yashash, ishlab chiqarishda, hosil yig'im-terimida qatnashish, ekologik toza mahsulotlarini iste'mol qilish, ovullar madaniyati bilan tanishish, qishloqning an'anaviy hayot tarzi va mehnatida ishtirok etish, bayramlarini nishonlash, bir necha kunini qishloq hududida o'tkazishni istashmoqda. Bu esa bizga agraturizmni yanada kengroq rivojlantirishimiz imkon yaratadi.

Mustaqillik yillarida turizm mamlakatimizda, ayniqsa xalqaro sayohatlarning ko'payishi hisobiga muhim sohaga aylandi. Hukumatning turizm industriyasini rivojlantirish borasidagi sa'y-harakatlari 1992-yilda—O'zbekturizm milliy kompaniyasining tashkil etilishi, 1993-yildan mamlakatimiz —Xalqaro turizm tashkilotining a'zolidigiga kirishida namoyon bo'ldi. Turizmni rivojlantirish bo'yicha davlat



siyosati, strategiyalarini muvofiqlashtirish hamda amalga oshirish vazifasi Turizm va madaniy meros vazirligiga yuklatildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son «O'zbekiston Respublikasini 2017-2021 yillarda yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni,
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 avgustdagi PQ-3217-son «2018-2019 yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlari tadbirlar to'g'risida»gi Qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 7 fevraldagi PQ-3514-son «Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori. Builders of The Future ISSN: 2181-2705 <https://kelajakbunyodkori.uz/> 9
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 2 apreldagi 03/1-220- son bilan tasdiqlangan «Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda namunali fermer xo'jaliklarini sayyohlarga xizmat ko'rsatishga moslashtirish, ularga sayyohlarni jalb qilish hamda ularning mamlakatimizda bo'lish muddat-larini uzaytirish maqsadida agroturizm va qishloq turizmini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi».
5. Azizkulov B.X., Siddiqov A.A. Assessment of the features of investment in the development of agrotourism based on a cluster approach. Journal of innovations in economy. 2021. Vol. 4, Issue 1. (40-48) pp. DOI 10.26739/2181-9491-2021-1-6.
6. Busby G., Rendle S. (2000). The transition from tourism on farms to farm tourism. Tourism Management, 21(6): 635-642. DOI:10.1016/S0261-5177(00)00011-X.
7. Здоров А.Б. Организационно-экономические основы развития аграрного туризма. Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора экономических наук. Москва – 2011.